

XVIII – XIX – ASR ADABIYOTIDA HUKMDOR IJODKORNING O‘RNI.

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti

23.90A guruh talabasi

Xurshidaxon Mahammadova.

Anotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘qon xoni Amir Umarxon va Xorazm xoni Abulg‘oziy Bahodirxonning adabiy merosi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ikkala hukmdorning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda, ular yaratgan badiiy va tarixiy asarlarning o‘zbek adabiyoti hamda tarixshunosligidagi o‘rni yoritiladi. Maqolada Umarxonning ma‘rifatparvarlik ruhidagi she‘riyati, saroy adabiyotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi hamda Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” kabi tarixiy asarlaridagi ilmiy-uslubiy xususiyatlar solishtiriladi. Tadqiqot natijalari ikki davr hukmdorlarining ijodiy merosi o‘zbek madaniyati taraqqiyotida muhim o‘rin tutishini asoslaydi.

Kalt so‘zlar: Amiriy, Abdulg‘oziy Bahodirxon, Shajarayi turk, Shajarayi tarokima, madaniyat, yuksalish.

O‘zbek tarixshunosligida Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining ilmiy va tarixiy merosi bilan alohida o‘rin egallagan yirik siymo hisoblanadi. U Xiva xonligining hukmdori bo‘lishi bilan birga, o‘z davri voqealarini ilmiy asosda yoritgan tarixchi sifatida ham mashhurdir. Abulg‘ozi Bahodirxonning tarixchilikdagi yuksak mavqei, avvalo, “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” kabi asarlarining ilmiy ahamiyati bilan belgilanadi.

Uning ushbu asarlarida Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi, siyosiy tarixi, qabila va urug‘larning shakllanishi, ularning o‘zaro aloqalari juda batafsil yoritilgan. Muallif tarix yozishda an‘anaviy sharq tarixiy metodlariga tayangan bo‘lsa-da, asarlarni yaratishda og‘zaki rivoyatlar, yozma manbalar, shuningdek, o‘zi guvoh

bo'lgan voqealardan keng foydalangan. Bu jihat Abulg'ozini asarlarini boshqa tarixiy manbalardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir.

Abulg'ozining “Shajarayi turk” asari 1663–1664-yillarda yozilgan bo'lib, Xorazmning XVI–XVII asrlar davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini o'zida mujassam etgan nodir manbadir. Muallif asarida tarixiy xolislikka rioya qilishga intilgan, hukmdorlarni asossiz maqtash yoki voqealarni sun'iy ravishda bo'yab ko'rsatishdan tiyilgan. U asarini yaratishda forsiy va turkiy tillarda yozilgan o'n sakkizta manbaga tayanadi. Abulg'ozini o'z asarlarini sodda, ravon turkiy tilda yozishni maqsad qilganligini: “Bu tarixni yaxshi-yomon barchalari bilsin deb turk tili bilan aytdim... besh yashar o'g'lon tushunur”, — degan fikrlari orqali tasdiqlaydi.

“Shajarayi tarokima” esa 1660–1661-yillarda yozilib, turkman urug'larining kelib chiqishi, ularning ijtimoiy tarixi, Xiva xonligi bilan aloqalari, siyosiy jarayonlar haqida muhim ma'lumotlar beradi. Asarda O'g'uzxon va uning avlodlariga doir rivoyatlar, turkman urug'lari – Tekke, Yomut, Salor, Ersari, Chovdur va boshqalarning genezisi bayon qilingan.

Abulg'ozini Bahodirxonning asarlari Sharq olimini ham, rus va Yevropa tarixchilarini ham o'ziga jalb qilgan. XVIII–XIX asrlarda “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” bir necha bor rus tiliga tarjima qilinib, sharqshunoslik rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. XX asrda ham ko'plab olimlar, jumladan Olim Sharofiddinov, Abulg'ozining ilmiy xizmatlarini yuqori baholagan.

Abulg'ozini Bahodirxonning tarixiy merosi turkiy xalqlarning etnogenezi, siyosiy taraqqiyoti, davlat tuzilishi va madaniy hayotini o'rganishda bebaho manba bo'lib, bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan. Uning asarlari nafaqat tarixiy faktlar majmuasi, balki tarixni talqin qilishning o'ziga xos ilmiy uslubini ham namoyish etadi.

Umarxon davri Qo'qon madaniyatida yuksalish bosqichi bo'lgan. Qo'qon, Toshkent, Chimkent, Sayram, Avliyoota va boshqa shaharlarda masjid-madrasalar

qurilib, ilmiy-ma'rifiy muhit sezilarli ravishda jonlandi. Xon hunar maktablarini ochishni qo'llab-quvvatladi, qabristonlar tartibga keltirildi, yangi qishloqlar va Shahrixon shaharchasi barpo etildi. Shu yillarda Chimkent va Sayramda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bostirilgan bo'lsa-da, Umarxon umuman olganda davlatni markazlashtirishga intilgan hukmdor sifatida tarixda nom qoldirdi.

Amir Umarxonning eng muhim xizmatlaridan biri — Qo'qonda adabiy muhitni shakllantirish va rivojlantirishidir. U adabiyot homiysi sifatida shoirlarni o'z atrofiga to'pladi; saroyda 70 dan ortiq ijodkorlar faoliyat yuritdi. 1821-yilda Fazliy Namanganiy xon topshirig'iga binoan 63 shoirning she'rlarini jamlagan "Majmuai shoiron" to'plamini tuzdi. Unda Umarxonni ulug'lovchi qasidalar, tatabbu'lar va boshqa janrdagi she'rlar keng o'rin egalladi.

Amir Umarxon "Amiriy" taxallusi bilan ijod qilgan bo'lib, uning she'rlari ikki tilda — o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan. Shoir aruzning yengil va o'ynoqi vaznlarida ijod qilgan, g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlarda samarali qalam tebratgan. Uning she'riyati asosan ishq-muhabbat, ma'naviy kamol, tasavvufiy mushohada va axloqiy-pedagogik g'oyalarga bag'ishlangan. Amiriy o'zini Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy va Bedilning ijodiy an'analariga tayanib shakllantirgan, ularga muxammaslar bog'lagan, ayrim g'azallarida tatabbu' yo'lidan borgan.

Amir Umarxonning siyosiy yetakchilik faoliyati, madaniy siyosati, adabiyot va ilm ravnaqiga qo'shgan hissasi uni o'z davrining eng yirik ma'rifatparvar hukmdorlaridan biri sifatida tarixga muhrlagan. U yaratgan madaniy-adabiy muhit Qo'qon xonligi uchun haqiqiy uyg'onish bosqichini tashkil etgan.

Xulosa: Amir Umarxon va Abulg'oziy Bahodirxon turli davrlarda yashagan bo'lsalar-da, har ikkisi o'z davrining hukmdori sifatida siyosiy va ma'naviy hayotga katta ta'sir ko'rsatgan. Amir Umarxon she'riyat va madaniyat homiysi bo'lib, lirik ijod orqali xalq ruhiyatini yuksaltirgan, Abulg'oziy esa tarixiy asarlari bilan turkiy xalqlar

o'tmishini saqlab, keyingi avlodlar uchun ilmiy manba yaratgan. Shu jihatlari bilan ular o'zbek madaniyati va adabiyotining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar.

1. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent: Fan, 1964.
2. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi tarokima. Toshkent: Fan, 1966.
3. Umarxon (Amiriy). Majmuai shoiron (qo'lyozma devonlar tahlili). Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti, 2000.
4. Olim Sharofiddinov. O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. Toshkent: 1945.
5. Qodirov, O. Xorazm va Qo'qon tarixida hukmdorlar ijodi. Toshkent: Fan, 1978.
6. Karimov, A. O'zbek tarixshunosligi va adabiy meros. Toshkent: Akademyashr, 2005.